

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi:

№ BD 14

2025 yil 29 August



**GEOGRAFIK TADQIQOT USULLARI
FANINING O'QUV DASTURI
(kunduzgi, kechki)**

Bilim sohasi:

100000 - Ta'lim

Ta'lim sohasi:

110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi:

60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim
yo'nalishi

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi TF.GTU2704		O'quv yili 2025-2026	Semestr 7	Kreditlar 4	
Fan/mavzu turi Tanlov fan		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Geografik tadqiqot usullari		60 (30/30)	60	120
2.	I. Fanning mazmuni “Geografik tadqiqot usullari” fanining asosiy maqsadi — talabalarni geografik hodisa va jarayonlarni ilmiy asosda oʻrganish, tahlil qilish hamda xulosa chiqarish usullari bilan tanishtirish, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati yuritish koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, fan orqali talabalar geografik axborotlarni yigʻish, qayta ishlash, vizualizatsiya qilish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zarur boʻlgan metodik yondashuvlar bilan qurollantiriladi. Fanning vazifasi: <ul style="list-style-type: none">- Talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatining mohiyati, bosqichlari va tamoyillari haqida tushuncha hosil qilish.- Geografik hodisalarni oʻrganishda qoʻllaniladigan asosiy tadqiqot usullari (kuzatish, eksperiment, modellash, statistik, kartografik va boshqalar) bilan tanishtirish.- Amaliy mashgʻulotlar orqali geografik axborot toʻplash, tahlil qilish va umimlashtirish koʻnikmalarini rivojlantirish.- Statistik va grafik usullardan foydalangan holda tadqiqot natijalarini vizual koʻrinishga keltirishni oʻrgatish.- Mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlari loyihasini tuzish va uni amalga oshirish boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarni berish.- Zamonaviy texnologiyalardan (GIS, masofaviy zondlash, raqamli xaritalash va h.k.) foydalangan holda geografik tadqiqotlar olib borish malakasini shakllantirish. II. Nazariy qism (maʼruza mashgʻulotlari) I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Geografik tadqiqot usullari fani maqsadi, vazifalari va mazmuni. Fan, fanlar tizimi. Fanning maqsad va vazifalari. Tabiiy fanlarning vazifalari. Geografiya fanlari tizimi. Tabiiy geografik fanlar tizimi. Iqtisodiy geografik fanlar tizimi. Maxsus geografik fanlar tizimi. Geodeziya va kartografiya. Geografik tadqiqot usullari va uslublari. Geografik tadqiqot usullari va uslublari — bu geografik hodisa va jarayonlarni ilmiy asosda oʻrganish uchun qoʻllaniladigan nazariy va amaliy yondashuvlar majmuasidir. Ular geografik obyektlarning tabiati, joylashuvi, oʻzaro taʼsiri, rivojlanishi va taqsimotini aniqlashga xizmat qiladi. Kuzatish usuli, Tajriba (eksperiment) usuli, Kartografik usul, Statistik usul, Taqqoslash usuli, Tizimli yondashuv (kompleks yondashuv), Model yaratish usuli, Masofaviy zondlash usuli, GIS (geoaxborot tizimlari) usuli, Anketaviy va soʻrovnoma usuli (ijtimoiy-geografik tadqiqotlar uchun) Tabiiy geografik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari Ilmiy masalani aniqlash va tadqiqot maqsadini belgilash; Metodologiya tanlanishi va tadqiqot usullarini belgilash; Tadqiqot obyekti va hududini aniqlash; Maʼlumotlar yigʻish				

va tahlil qilish; Natijalarni tahlil qilish; Xulosalar va tavsiyalar; Hisobot yozish va natijalarni taqdim etish; adqiqot natijalarini baholash va tekshirish

Tabiiy geografik tadqiqotlarda GIS texnologiyalarining ahamiyati.

Fazoviy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va vizual ko'rinishda ifodalash GIS yordamida relyef, suv resurslari, iqlim zonalari, yer qoplamining o'zgarishi kabi jarayonlar aniqlik bilan o'rganilishi. Bu texnologiya tabiiy hodisalarning hududiy taqsimoti va dinamikasini tushunishga, muammoli hududlarni aniqlashga, monitoring va prognoz qilishga xizmat qiladi. Geomorfologik, gidrologik, ekologik va landshaftshunoslik tadqiqotlarida GIS vositalari yuqori samaradorligi. GIS texnologiyalari bugungi geografik fan va amaliyotning ajralmas vositasi.

Tarmoq tabiiy geografik tadqiqot ishlari.

Tabiiy geografik jarayonlar va obyektlarning o'zaro bog'liqligini va ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy faoliyatdir. Tarmoq (yoki tizim) tabiiy geografik tadqiqotlarida, asosan, geografik obyektlar va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ularning tarmoq tuzilmasidagi o'rni va tizim sifatida o'zaro bog'lanishi o'rganiladi

Geomorfologik tadqiqotlar

Yer yuzasidagi landshaftlarning shakllanishi, rivojlanishi va o'zgarishini o'rganadigan ilmiy soha. Geomorfologiya tabiiy geografik jarayonlar va ularning Yer yuzasidagi shakllarga ta'sirini tahlil qiladi. Geomorfologik tadqiqotlarning asosiy mavzusi yer yuzasidagi tabiiy shakllarning kelib chiqishi, rivojlanishi va evolyutsiyasini, bu jarayonlarning davomiyligini va ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Meteorologik va mikroiklimiy kuzatishlar

Meteorologik hodisalar juda ham murakkab jarayondir. Bu hodisalar o'zaro chambarchas bog'langan ayrim meteorologik elementlardan iborat. Birorta meteorologik elementning o'zgarishi, qolgan elementlarning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun atmosfera holati, ya'ni ob-havo sharoitlari hamma vaqt o'zgarib turadi. Bir kunning ob-havosi ikkinchi kun ob-havosiga o'xshash bo'lgan hollar juda kam uchraydi. Atmosfera havosi har doim harakatda bo'ladi. Havo massalari yuqori bosimli oblast (antisiklon)dan past bosimli oblast (siklon)ga tomon ko'chib yuradi.

Gidrologik tadqiqotlar

Gidrologik tadqiqotlarda suv bilan bog'liq tabiiy jarayonlar va obyektlar har tomonlama o'rganiladi. Ularning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: Yer usti suvlari – daryo, ko'l, dengiz, muzliklarning hajmi, rejimi, oqim tezligi, sathi va kimyoviy tarkibi o'rganish, Yer osti suvlari – artezian suvlari, grunt suvlari, ularning chuqurligi, zaxirasi va foydalanish imkoniyatlari aniqlash, Gidrologik rejim – suv obyektlarining yillik o'zgarish davriyligi: toshqin, qurish, muzlash va yechilish jarayonlari tahlil qilish, Suv balansi – hududdagi suv kirimi va chiqimi o'rganilib, suv resurslarining yetarliligi baholash, Suvning ifloslanishi – ekologik holat, ifloslanish manbalari va ta'sir darajasi aniqlash, Gidrologik xaritalar tuzish, Iqlim bilan bog'liqlik – yog'ingarchilik, bug'lanish, harorat va boshqa omillarning suv rejimiga ta'siri o'rganiladi.

Zoogeografik tadqiqotlar

Zoogeografik tadqiqotlarda hayvonot dunyosining Yer yuzasida tarqalishi, ularning yashash areallari va ekologik omillar bilan bog'liqligi o'rganiladi. Bu tadqiqotlar hayvon turlarining tabiiy zonalar bo'yicha joylashuvi, populyatsiyalar soni, migratsiya yo'nalishlari va biologik xilma-xillikni tahlil qilishga qaratiladi. Shuningdek, inson faoliyati va iqlim

o'zgarishlarining hayvonot olamiga ta'siri, yo'qolib borayotgan turlar va ularni muhofaza qilish masalalari ham o'rganiladi. Zoogeografik tadqiqotlar ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga asos yaratadi.

Geobotanik tadqiqotlar

Geobotanik tadqiqotlar o'simliklarning Yer yuzasida tarqalishi, turlar tarkibi, ularning ekologik sharoitlarga moslashuvi va tabiiy omillar bilan bog'liqligini o'rganadi. Ushbu tadqiqotlar orqali o'simlik jamoalari (fitotsenozlar), ularning zonalligi, balandlik mintaqalari bo'yicha taqsimoti va evolyutsiyasi aniqlanadi. Geobotanik izlanishlar shuningdek, o'simliklarning tuproq, iqlim, gidrologik sharoitlarga bo'lgan talablarini ham tahlil qiladi. Bu tadqiqotlar o'rmonlar, yaylovlar, botqoqliklar va boshqa tabiiy hududlarning ekologik holatini baholash hamda ularni muhofaza qilish choralari ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Agrogeografik tadqiqotlar

Agrogeografik tadqiqotlar qishloq xo'jaligi faoliyatining hududiy tarqalishi, tabiiy-iqlimiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liqligi, yer resurslaridan foydalanish xususiyatlarini o'rganadi. Ushbu tadqiqotlar davomida ekin turlari va ularning geografik joylashuvi, hosildorlik darajasi, suv ta'minoti, tuproq sifati va dehqonchilik tiplari tahlil qilinadi. Shuningdek, chorvachilikning mintaqaviy rivojlanishi, ozuqa bazasi, hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari o'rganiladi.

Aholi joylashuvini geografik o'rganish.

Aholining joylashuvi va hududiy tashkil topishi, jamiyat ishlab chiqarishi va jamiyatning atroftabiati bilan aloqasi jarayonida aholining tuggan o'rnini o'rganadi. Aholi geografiyasi aholi bilan bog'liq masalalar — aholi soni, tarkibi, joylashuvi va bu joylashuvning hududiy shakllari (shahar va qishloq joylari)ni va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan mehnat resurslarini geografiya nuqtai nazaridan o'rganadi, Aholi geografiyasi asosida aholi migratsiyasi geografiyasi, aholi joylari (shaharlar va qishloqlar) geografiyasi, aholini takror barpo etilishi geografiyasi va mehnat resurslari geografiyasi

Sanoat tarmoqlarini geografik o'rganish.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning birinchi asosiy manbai hisoblanadi. sanoatning hududiy joylashishini, turli davlatlar va rayonlarda sanoatning joylashish qonuniyatlarini, sharoitini va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Sanoat rivojlanishiga sezilarli ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tavsiflash; sanoat rayonlari, tugunlari va markazlarining shakllanish omillarini o'rganish; ayrim sanoat tarmoqlarining xolatiga va joylashishiga ta'sir etadigan texnik-iqtisodiy sharoitni tadqiq qilish; tarmoqlararo va rayonlararo aloqalarni o'rganish; mamlakat xalq xo'jaligida va iqtisodiy rayonlar shakllanishida sanoat joylashishining ahamiyatini aniqlash.

Qishloq xo'jaligini geografik o'rganish.

Qishloq xo'jaligini geografik o'rganish, turli hududlarda qishloq xo'jaligi tarmoqlarining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga bog'liq ravishda qanday rivojlanishini, ekologik ta'sirlar va resurslardan qanday foydalanishni o'rganishga imkon beradi. Bu tadqiqotlar, shuningdek, qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanishni, barqaror rivojlanishni ta'minlash va ekologik salbiy ta'sirlarni kamaytirishga yordam beradi

Geosiyosat va siyosiy geografiyada tadqiqotlarni tashkil etish

Geosiyosat va siyosiy geografiya o'rtasidagi farqlarni tushunish tadqiqotlarni samarali tashkil etish uchun muhimdir. Geosiyosat odatda siyosiy jarayonlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar va ularga ta'sir qiluvchi geografik omillarni o'rganishga qaratilgan. Siyosiy

geografiya esa, asosan, ijtimoiy, siyosiy va madaniy tizimlarning geografik joylashuvi va o'zgarishini o'rganadi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tabiiy geografik tadqiqot metodlari va ularning tahlil
2. Geografik taqqoslash usuli va undan foydalanish
3. Masofaviy zondlash usuli, GIS (geoaxborot tizimlari) usuli
4. Anketaviy va so'rovnoma usuli (ijtimoiy-geografik tadqiqotlar uchun)
5. Tabiiy geografik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari
6. Meteorologik ko'rsatkichlar asosida iqlim diagrammalari tuzish
7. Hidrologik tadqiqotlarni olib borishda keng ishlatiladigan masallarni yechish
8. Yozuvsiz xaritada hayvonlarning tarqalishini tushurish
9. Geobotanik tadqiqotlar asosida gerbariylar tayyorlash
10. Yozuvsiz xaritada tuproqlarning tarqalishini tushurish
11. Aholiga xizmat ko'rsatish muassasalarining hududiy tarkibini baholash
12. Inson xo'jalik faoliyatini tabiatga ta'siri va oqibatlarini o'rganish
13. Viloyatlar aholisi bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va qayta ishlash
14. Qishloq xo'jaligi kartalarini tuzish usullari
15. Davlat yoki mintaqadagi geosiyosiy munosabatlarni o'rganish

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o'lchash, meteorologik asboblardan foydalanish bilan ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmiy topshiriq tuzish;
- Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krassvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo'q javobli test tuzish;
- Audio dars tayyorlash;
- Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;
- Adabiyotlar ro'yxatini tuzish;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Tabiiy-geografik tadqiqotlarning mazmuni va ilmiy-amaliy ahamiyati
2. Tabiiy geografik tadqiqotlar va ularning rivojlanish tarixi
3. Tuproq, geobotanik tadqiqotlar

	<p>4. Zogeografik tadqiqotlar</p> <p>5. Dala sharoitida tadqiqotlarni tashkil etish</p> <p>6. Landshaftlarni geografik o'rganish</p> <p>7. Geoekologik tadqiqotlar va ularni tashkil etish</p> <p>8. Inson xo'jalik faoliyatini tabiatga ta'siri va oqibatlarini o'rganish</p> <p>9. Tabiiy geografik tadqiqotlar va ularning rivojlanish tarixi</p> <p>10. Geografik taqqoslash usuli va undan foydalanish</p> <p>11. Agrogeografik tadqiqotlar</p> <p>12. Yer usti va osti suvlarini o'rganish uslubi</p> <p>13. Geografik taqqoslash usuli va undan foydalanish</p> <p>14. Tabiiy geografik tadqiqot metodlari va ularning tahlil</p> <p>15. Toponimik tadqiqot olib borishda taqqoslash usuli</p> <p>16. Tibbiy-geografik tadqiqotlar</p> <p>17. Geoekologik tadqiqotlar va ularni tashkil etish</p> <p>18. Hidrologik tadqiqotlar</p> <p>19. Tabiiy hududiy komplekslar tabiiy geografik tadqiqotlar obekti</p> <p>20. Geografiyada qo'llaniladigan tadqiqot uslublari</p> <p>21. Tabiiy geografik tadqiqot ishlarining asosiy bosqichlari</p> <p>22. Geologik va geomorfologik tadqiqotlar</p> <p>23. Meteorologik va mikroiklim kuzatishlari olib borish uslubi</p> <p>24. Tuproq. Geobotanik tadqiqotlar</p> <p>25. Yer usti va yer osti suvlarini o'rganish uslubi</p> <p>26. Tabiiy xududiy komplekslar tabiiy geografik tadqiqotlar obekti</p> <p>27. Landshaftlarni o'rganish. Tipologik va regional landshaft yo'nalishlari. Landshaftning morfologik birliklarini o'rganish</p> <p>28. Geografik tadqiqotlarda ekspedisiya davri.</p> <p>29. Topografik karta bilan ishlash usullari</p> <p>30. Geokomplekslarning morfologik birliklari</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p style="text-align: center;">Talaba bilish kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • geografiya fanini tizimlarga bo'lish, koinotning yerga ta'siri va uning asosiy oqibatlarini, geografik qobiqni yuzlama va bo'ylama yo'nalishida tabaqalanish sabablarini, geosferalarning tuzilishi va ularning joylanishiga ta'sir etuvchi omillartasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • Fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, geografiya fanlari tizimi, koinot to'g'risidagi asosiy tushunchalar, geografik qobiqning asosiy xususiyatlarining tuzulishi, undagi harakatlar, geografik qobiqning rivojlanish tarixini bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma). • Gerografik tadqiqot usullari fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va o'quvchilarni baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • dialogik yondoshuv • SWOT tahlili

	<ul style="list-style-type: none"> • Wenn diagrammasi • debat • assisment • baliq skleti • kim chaqqon • kim oshdi • blis test va boshqalar
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. A.Sattarov Geografik tadqiqot usullari Маърузалар матни. Т., 2020 2. Солиев А., Назаров М. Иқтисодий географик тадқиқот усуллари. Маърузалар матни. «Университет», Т., 2000. 3. Sattarov A. Geografik tadqiqot usullari va uslublari. Ma’ruza matni. Termiz. 2021. -86 b. 4. Jumayev X. Iqtisodiy geografiyaning tadqiqot usullari. Qarshi. 2007. -56 b. <p style="text-align: center;">IX. Qo‘shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Методика полевых физико-географических исследований (под.ред. Архангелского А.М.). -М.: Высшая школа, 1976. 2. Николаев В.А. Проблемы регионального ландшафтоведения. -М.: МГУ, 1979. -160 с. 3. Николаев В.А. Ландшафтоведение. -М.: МГУ, 2000. - 94 с. 4. Чернихова Л. Учебные экскурсии по географии. -М.: Просвещение, 1980. 5. Зайнутдинов А. ва бошқ. Табиий географиядан ўқув-дала амалиёти (Чорбоғ ўқув-дала амалиёти мисолида). –Т.: Университет, 2003. 6. Хасанов И.А. Отсценка природных территориальных комплексов Каршинской степи для оросительной мелиоратсии. Т.; «Фан» 1981. 7. Николаев В.А. Ландшафты азиатских степей. М.; “Университет” 1999. 8. Солиев А.С., Каршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари. Тошкент, 1999. 9. Солиев А., Маллабоев Т. Иқтисодий ва сотсиал географияда айрим қонуниятларни ўрганиш методикаси. Т., 1988. <p style="text-align: center;">O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston Ryespublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. 4. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. 5. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. 6. www.pedagog.uz 7. www.apkpro.ru/content/view 8. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten 9. www.relarn.ru/conf/conf2007

10.	http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/
11.	http://www.allmath.ru/
12.	http://www.ziyounet.uz/
13.	http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru
14.	lme/geograflar_kutubxonasi - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar kanali
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil "___" _____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: I.O.Orifjonova – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida assistenti.
9.	Taqrizchilar: F.A.Xamroyeva - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida dotsenti (ichki) Z.A.G'aniyev- Sharof Rashidov nomidagi SamDU Geografiya va ekologiya fakulteti dotsenti (tashqi)

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 98-o'rinni egallagan Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Методы физико-географических исследований va методы анализа географических данных dasturlari tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.

"Geografik tadqiqot usullari" fanining dasturi tayyorlanib 2 ta mavzusi yangilandi

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgl_metody%20fiziko-geograficheskikh%20issledovaniy_2023.pdf

[https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgl_%20Metody_%20analiza_%20geograficheskikh_%20dannyykh_new_2023.p df](https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgl_%20Metody_%20analiza_%20geograficheskikh_%20dannyykh_new_2023.pdf)

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetning 2025-yil 23-apreldagi №2 sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi:

I.O.Orifjonova

Kafedra mudiri:

F.A.Xamroyeva

Fakultet raisi:

Z.A.G'aniyev

O'quv-ishlab chiqarish bo'yicha prorektor:

A.A.Salmonov

